


To'ra Bobolov ehtiyojmand oilalarga 800 ming so'mdan ajratilgan moddiy yordam va Yangi yil sovg'alarini yetkazdi



Viloyat hokimi To'ra Bobolov Termiz tumanining Orol mahallasida bo'lib, "Temir daftar"ga ro'yxatga olingan oilalar holidan xabar oldi. Viloyat rahbari xonadon egalariga Prezidentning Yangi yil tabrigini o'qib eshittirib, moddiy yordam puli va bayram sovg'alarini topshirdi.

– Turmush o'rtog'im ikkinchi guruh nogironi, o'zim kunlik ishlarda ishlab, ro'zg'orimizni tebratyapmiz. Ochig'i, qishda biroz qiynalib turganimizda Prezidentimizning sovg'alari juda asqotdi. Bayram dasturxonimiz endi to'kin bo'ladigan bo'ldi. Minnatdormiz, inson qadri ulug'lanayotgan shu yurtda yashayotganimizga ming bor shukur, – deydi Orol mahallasida yashovchi Muazzam Aliqulova.

To'ra Bobolov mahalladagi savdo do'konlarida ham bo'lib, sotuvchilar va xaridorlar bilan suhbatlashdi. Oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa kundalik ehtiyoj mollarining narx-navosi bilan qiziqdi.

Ma'lumot uchun, Prezident qaroriga ko'ra, Yangi yil bayrami arafasida viloyatimizda "Temir daftar" ro'yxatida bo'lgan 17 203 ta oilaga, shuningdek, 18 yoshga to'lmagan farzandlari bor boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi yoki nafaqasini oluvchi hamda 18 yoshgacha bolalar uchun nogironlik nafaqasini oluvchi 25 846 ta oilaga 800 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatilmoqda. Viloyatda jami 43 049 oilaga 34,3 mlrd. so'm miqdorida moddiy yordam berilishi ko'zda tutilgan.

https://t.me/axborot_xizmati